

## OLIV TA'LIM MUASSASALARI TRANSFORMATSION LIDERLIK VA UNING BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

**Umarkulova Kamola Begaliyevna**

O'zbekiston Milliy Pedagogika universiteti Pedagogika  
fanlari doktori, (phd)

**Shukurova Shaxzodaxon Xolbek qizi**

O'zbekiston Milliy Pedagogika universiteti  
Pedagogika mutaxassisligi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20556311>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida transformatsion liderlik modeli va uning boshqaruv samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Transformatsion liderlik rahbarning jamoani ilhomlantirish, xodimlar salohiyatini rivojlantirish hamda innovatsion muhitni shakllantirishdagi o'rni bilan izohlanadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim boshqaruvi jarayonlarida rahbarlik uslublarining ahamiyati, xususan transformatsion yondashuvning tashkiliy samaradorlik, motivatsiya va jamoaviy hamkorlikka ta'siri yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Lider, transformatsion liderlik, boshqaruv samaradorligi, rahbarlik uslubi, motivatsiya, innovatsion muhit, tashkiliy rivojlanish, jamoaviy hamkorlik, ta'lim boshqaruvi.

**Abstract:** This article analyzes the model of transformational leadership in higher education institutions and its impact on management effectiveness. Transformational leadership is described through the leader's role in inspiring teams, developing employees' potential, and creating an innovative environment. In addition, the importance of leadership styles in modern educational management processes is highlighted, particularly the influence of the transformational approach on organizational efficiency, motivation, and team collaboration.

**Keywords:** Leader, transformational leadership, management effectiveness, leadership style, motivation, innovative environment, organizational development, team collaboration, educational management.

**Аннотация:** В данной статье анализируется модель трансформационного лидерства в высших учебных заведениях и её влияние на эффективность управления. Трансформационное лидерство рассматривается через роль руководителя в вдохновении коллектива, развитии потенциала сотрудников и формировании инновационной среды. Также подчеркивается значение стилей руководства в современных процессах управления образованием, особенно влияние

трансформационного подхода на организационную эффективность, мотивацию и командное взаимодействие.

Ключевые слова: Лидер, трансформационное лидерство, эффективность управления, стиль руководства, мотивация, инновационная среда, организационное развитие, командное взаимодействие, управление образованием.

Globalashuv jarayoni, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda ta'lim tizimining xalqaro makonga integratsiyalashuvi sharoitida oliy ta'lim tizimi oldiga yangi, murakkab talablar qo'yilmoqda. Endilikda oliy ta'lim muassasasi rahbaridan faqat an'anaviy boshqaruv ko'nikmalari emas, balki transformatsion liderlik salohiyati ham zarur bo'lmoqda. Chunki bugungi ta'lim muhitining o'zi doimiy o'zgarish, yangilanish va raqobat sharoitida faoliyat yuritishni talab etadi. Shu sababli rahbarning jamoani ruhlantira olishi, ularni umumiy maqsad sari birlashtirishi, o'zgarishlarga tez moslashishi hamda yangiliklarni ochiq qabul qilishi ta'lim sifati va samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda.

Oliy ta'lim rahbarlarining boshqaruv madaniyati qanchalik rivojlangan bo'lsa, utashkilotfaoliyatini aniq bir tizimga asoslangan holda samarali boshqara oladi. Bu juda ham muhim masala hisoblanadi. Chunki oliy ta'lim tizimi bizga kelajak yoshlarimizni yetuk kadrlar qilib yetkazib berishi lozim. Bu esa ushbu masalaga bo'lgan e'tiborni yanada oshiradi. Lider degan so'zni eshitganda istalgan odam o'z orqasidan boshqalarni ham yetkilab ketadigan odamni tushunadi. Liderlik jihati har bir rahbarda bo'lishi lozim. Chunki rahbar butun bir muassasa faoliyatiga, xodimlarining muvaffaqiyatga erishishi yoki erisholmasligiga javobgar bo'ladi. Rahbar umumiy ta'lim tizimining bir bo'g'ini ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, uning yelkasiga yuklatilgan mas'uliyatning qanchalik og'ir ekanligini tushunib yetamiz. Hozirgi zamonda transformatsion liderlik degan tushuncha mavjud. Transformatsion liderlik deganda biz rahbarlarning shunchaki buyruq beribgina o'z faoliyatini olib bormasdan, balki o'z xodimlarini motivatsiya bergan holda yuksak maqsadlarga yetaklay olish qobiliyatini ham tushunamiz.

Transformatsion liderlikning mohiyati inson omiliga tayangan holda shakllanadi. Bunday yondashuvda rahbar faqat nazorat qiluvchi emas, balki jamoa a'zolarining fikrini qadrlaydigan, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydigan va ijobiy psixologik muhit yaratish orqali ijodkorlik hamda yangilik sari intilishni rag'batlantiradigan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bunday lider jamoani umumiy maqsad sari birlashtira oladi, o'zgarishlardan cho'chimaydi

va har bir xodimning salohiyatini ro'yobga chiqarishga sharoit yaratadi. U boshqaruvchi emas, balki yo'l ko'rsatuvchi, ishonch uyg'otuvchi va ilhom manbai bo'lgan shaxsdir. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda transformatsion liderlik tamoyillariga asoslangan boshqaruv uslublarining ahamiyati sezilarli darajada ortib bormoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalarini nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 27.10.2020 yildagi 655-son qarorida oliy ta'lim muassasalarida ilg'or boshqaruv amaliyotlarini joriy etish, ochiqlik, mas'uliyat va yangilanishga tayyorlik muhitini shakllantirishga alohida urg'u berilgan. Shu nuqtayi nazardan, rahbarlarda strategik fikrlash, motivatsiya berish, samarali muloqot o'rnatish hamda innovatsion yondashuv kabi kompetensiyalarni rivojlantirish va ularni baholash mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tizimida innovatsion tafakkurni rivojlantirish, zamonaviy boshqaruv madaniyatini shakllantirish va xalqaro tajribaga yaqinlashish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Transformatsion liderlik g'oyasi dastlab amerikalik olim J. Burns tomonidan 1978-yilda chop etilgan "Leadership" asarida ilgari surilgan. U rahbarlikni faqat boshqaruv faoliyati deb emas, balki insonlarning ongiga, qadriyatlariga va motivatsiyasiga ta'sir ko'rsatish jarayoni sifatida talqin qilgan. James Burns fikricha, haqiqiy rahbar jamoani maqsad sari birlashtiradi, ularda ishonch va mas'uliyat hissini uyg'otadi, natijada ular o'z manfaatidan ko'ra umumiy manfaatni ustun qo'yishga intiladilar. Keyinchalik B. Bass (1985) ushbu yondashuvni yanada rivojlantirib, transformatsion liderlikni to'rtta asosiy tarkibiy qismga ajratgan: ilhomlantiruvchi motivatsiya, individual yondashuv, intellektual rag'batlantirish va idealizatsiyalangan ta'sir. Bu komponentlarning har biri rahbarlik jarayonining muayyan jihatini ifodalaydi va ular uyg'un holda qo'llanilganda tashkilotda innovatsion muhit shakllanishiga turtki beradi. Ilhomlantiruvchi motivatsiya -rahbarning jamoani umumiy maqsad sari yetaklab, ularda ishonch, fidoyilik va o'ziga ishonch hissini uyg'ota bilish qobiliyatidir. Oliy ta'lim tizimida bunday yondashuv o'qituvchilarni ilmiy izlanishlarga jalb etadi, talabalarda esa o'z fikrini erkin ifodalash va yangilik yaratishga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Individual yondashuv rahbarning har bir xodimning imkoniyatini, tajribasini va qiziqishini inobatga olgan holda ularni rag'batlantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan strategiyasidir. Masalan, yosh o'qituvchilarga mentorlik tizimini yo'lga qo'yish, ilmiy loyihalarda ularning ishtirokini qo'llab-quvvatlash yoki malaka oshirish imkoniyatlarini yaratish bunga yaqqol misoldir. Intellektual rag'batlantirish rahbarning jamoani yangicha fikrlashga,

muammolarga noodatiy yechim topishga undashidir. Oliy ta'limda bu yondashuv innovatsion pedagogik metodlarni joriy etish, raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq qilish, hamda startap va ilmiy loyihalarni rivojlantirishda o'z ifodasini topadi. Idealizatsiyalangan ta'sir esa rahbarning shaxsiy namunasi orqali jamoada ishonch va hurmatni mustahkamlashini anglatadi. Adolatli qarorlar, halollik, mas'uliyat bilan ishlash va namuna bo'lish rahbarning obro'sini oshiradi, natijada jamoa uni ergashishga loyiq shaxs sifatida qabul qiladi.

Oliy ta'lim rahbarlari boshqaruvining rivojlantirishda transformatsion liderlik yondashuvining o'rni juda ham katta hisoblanadi. Hozirgi zamonda ta'lim sohasida ham raqobat juda yuqori hisoblanadi. Bir mamlakatda yuzlab yoki minglab oliy ta'lim muassasalari bo'lishi mumkin. Ular o'rtasida ham doimo o'ziga yarasha sog'lom raqobat kuzatiladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim muassasalarini doimiy ravishda rivojlanib borishlariga undaydi. Bunday raqobat zamonida qaysi ta'lim muassasasi aqlli, uzoqni ko'ra oladigan, puxta va strateg bo'lgan liderga ega bo'lsa, doimo muvaffaqiyatga erishgan holda yuqori o'rinlarda yuradi. Transformatsion liderlik yondashuvi orqali zamonaviy boshqaruvda samaradorlik, tashabbuskorlik va innovatsion o'zgarishlar yuz beradi. Oliy ta'lim tizimi rahbari transformatsion lider bo'lsa juda ham katta ijobiy o'zgarishlar bo'ladi. Transformatsion lider strategik qarorlar qabul qilish orqali yangi g'oyalarni ilgari suradi, uzoq muddatga mo'ljallangan rejalarni ishlab chiqadi. Shuningdek, ular yangi innovatsion g'oyalarni qo'llagan holda, tashkilotning muvaffaqiyatini yanada yuqori darajaga olib chiqadi. Inson o'zi moslashgan, o'rganib qolgan muhitida ishlashga, yangiliklarsiz faoliyatlarini olib borishga moyil. Lekin, haqiqiy rahbar innovatsiyalarga doimo tayyor turadi va ularni qabul qiladi. Bu esa ushbu tashkilotda ijobiy o'zgarishlar bo'lishiga zamin yaratadi. Transformatsion lider o'zi faoliyat olib borayotgan oliy ta'lim muassasasi xodimlari bilan doimo ochiq muloqot qilishga intiladi. Ularning fikrlarini, g'oyalarini doimo inobatga olgan holda ishlaydi.

So'nggi yillarda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida kuzatilayotgan yangilanishlar -masofaviy o'qitishning rivojlanishi, startap tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, innovatsion laboratoriyalar va texnoparklarning tashkil etilishi -transformatsion liderlik yondashuvining amaliy ifodasidir. Bularning barchasi rahbarlarning yangicha fikrlashi, strategik qaror qabul qilishdagi dadilligi va jamoani o'zgarishlarga tayyorlay olish salohiyatidan dalolat beradi. Oliy ta'lim muassasalarida transformatsion liderlik yondashuvi boshqaruvmadaniyatini yangi bosqichga olib chiqadi. Rahbarning transformatsion lider bo'lishi boshqaruvjarayonivasifatini yanada oshiradi.

Chunki zamonaviy rahbar faqat boshqaruvchi emas, balki haqiqiyyo'lko'rsatuvchi va boshqalarni o'zining ortidan yetaklay oladigan shaxs bo'lishi lozim. Shu sababli, transformatsion liderlik oliy ta'lim tizimida nafaqat boshqaruv samaradorligini oshirish, balki ijodkorlik, o'zaro ishonch va hamkorlik madaniyatini shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi.

Bunday o'zgarishlar oliy ta'lim muassasalarining innovatsion ekotizimini mustahkamlab, ularni tez o'zgarayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik muhitga moslashuvchan, raqobatbardosh tashkilotlarga aylantirmoqda. Transformatsion liderlikning eng samarali ta'siri, ayniqsa, ilmiyinnovatsion faoliyatni yo'lga qo'yish, o'qitish sifati va talabalar motivatsiyasini oshirishda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xulosa qilib aytganda, transformatsion liderlik oliy ta'lim muassasalarida innovatsion muhitni shakllantirish, jamoaning ijodkorlik salohiyatini yuzaga chiqarish va o'zgarishlarga tayyorlikni oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bunday liderlik yondashuvi nafaqat tashkiliy samaradorlikni oshiradi, balki inson omiliga -o'qituvchi va talabalarning ruhiy, intellektual hamda motivatsion holatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Rahbarning ilhomlantiruvchi fikrlashi, yangilikka ochiqligi, shaxsiy namuna ko'rsatish qobiliyati hamda strategik qarorlar qabul qilishdagi mas'uliyatligi ta'lim jarayonining sifati tubdan oshiradi. Shu bois O'zbekiston oliy ta'lim tizimida rahbarlar uchun transformatsion liderlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar, treninglar, seminarlar va "liderlik maktablari"ni yo'lga qo'yish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunday tashabbuslar oliy ta'lim boshqaruvini modernizatsiya qilish, innovatsion fikrlovchi, yangilik yaratuvchi, mas'uliyatli va global raqobat sharoitida mustaqil qaror qabul qila oladigan yangi avlod rahbarlarini tayyorlash uchun mustahkam zamin yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalarini nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 27.10.2020 yildagi 655-son qarori.
2. Abdullayev, A. Oliy ta'limda liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari. Ta'lim taraqqiyoti jurnali, №2, 45–52.
3. Bass. B.M., Transformational Leadership. Psychology Press.
4. James M. Kouzes, Barry Z. Posner, "The leadership challenge"
5. Karimova, N. Boshqaruv madaniyati va ta'lim muassasalarida liderlik modeli. Pedagogika va psixologiya, №3, 78–85.